



## XUSUSIY BANKLAR RESURS BAZASI VA UNI KENGAYTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI

### PRIVATE BANKS' RESOURCE BASE AND ADVANCED INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ITS EXPANSION

<sup>1</sup>Ernazarov Narmet  
Saparbayevich

<sup>1</sup>Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Bank hisobi va auditi"  
kafedrasi dotsenti. E-mail: [n.ernazarov@tsue.uz](mailto:n.ernazarov@tsue.uz)

#### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Mazkur maqolada xususiy banklarning resurs bazasini shakllantirish va uni kengaytirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bank tizimlarining resurslarni jalb qilish tajribasi tahlil qilinib, ularning zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlari o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston bank tizimida xususiy banklarning resurs bazasi holati statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Tahlillar natijasida depozit mablag'lariga yuqori bog'liqlikni kamaytirish, kapital bozori instrumentlaridan foydalanish, xalqaro moliyaviy institutlar mablag'larini jalb qilish hamda innovatsion moliyaviy vositalarni rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

*Eng.* - This article examines the theoretical and practical aspects of forming and expanding the resource base of private banks. The study analyzes the experience of banking systems in the United States and European Union countries in attracting financial resources and explores modern financing mechanisms. Based on statistical data, the current state of the resource base of private banks in Uzbekistan is assessed. As a result of the analysis, recommendations are developed to reduce dependence on deposit sources, improve the use of capital market instruments, attract resources from international financial institutions, and introduce innovative financial instruments.

#### Kalit so'zlar: Keywords:

- ❖ xususiy banklar, resurs bazasi, depozitlar, kapital, bank aktivlari, moliyaviy barqarorlik, diversifikatsiya, xorijiy tajriba.
- ❖ private banks, resource base, deposits, capital, bank assets, financial stability, diversification, foreign experience.

#### Kirish.

Bugungi kunda bank tizimining barqaror rivojlanishi va iqtisodiy jarayonlardagi faol ishtiroki ko'p jihatdan tijorat banklarining, xususan xususiy banklarning yetarli va samarali shakllangan resurs bazasiga bog'liq hisoblanadi. Bank resurslari moliyaviy vositachilik jarayonining asosiy omili bo'lib, ular orqali kreditlash, investitsiya faoliyati,

aholiga va xo'jalik yurituvchi subyektlarga bank xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlari kengayadi. Shu sababli xususiy banklarning raqobatbardoshligini oshirishda resurslarni shakllantirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xususiy banklar uchun resurs bazasining

yetariligi nafaqat likvidlikni ta'minlash, balki uzoq muddatli strategik rivojlanish imkoniyatlarini yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy ravishda bank resurslari aholi va korxonalarining depozitlari, banklararo kreditlar, ustav kapitali hamda boshqa moliyaviy instrumentlar hisobidan shakllangan bo'lsa, zamonaviy bank amaliyotida ushbu manbalarni kengaytirishning yangi usullari paydo bo'lmoqda. Jumladan, xalqaro moliya bozorlariga chiqish, obligatsiyalar chiqarish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va mijozlar bazasini kengaytirish orqali resurslarni jalb qilish imkoniyatlari ortib bormoqda [1].

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda xususiy banklarning resurs bazasini mustahkamlashda innovatsion yondashuvlar muhim o'rin egallaydi. Xususan, Yevropa mamlakatlari, AQSh va Osiyoning ilg'or bank tizimlarida depozit siyosatini takomillashtirish, kapital bozorlaridan samarali foydalanish, raqamli texnologiyalar asosida mijozlar bilan ishlash va uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmlari keng qo'llanilmoqda. Mazkur tajribalarni o'rganish rivojlanayotgan bank tizimlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, xususiy banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bank sektorida raqobat muhitini kuchaytirish, xususiy banklar faoliyatini kengaytirish va moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda xususiy banklarning barqaror resurs bazasini shakllantirish, ichki va tashqi moliyaviy manbalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni milliy bank amaliyotiga moslashtirish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi xususiy banklar resurs bazasining nazariy asoslarini o'rganish, uni kengaytirish bo'yicha

rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilish hamda ushbu tajriba asosida bank tizimini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

### ***Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.***

Xususiy banklarning resurs bazasini shakllantirish va kengaytirish masalasi zamonaviy bank tizimining barqarorligi hamda kreditlash imkoniyatlarini belgilovchi muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. So'nggi tadqiqotlarda bank resurslari faqat depozit mablag'lari emas, balki kapital, likvidlik manbalari, xalqaro moliyaviy resurslar va raqamli moliyaviy vositalarni ham qamrab oluvchi kompleks tizim sifatida qaralmoqda.

Y. Wang, S. Xiuping va Q. Zhang tomonidan Research in International Business and Finance jurnalida chop etilgan "Can fintech improve the efficiency of commercial banks? – An analysis based on big data" tadqiqotida moliyaviy texnologiyalarning bank faoliyatiga ta'siri o'rganilgan [2]. Mualliflar raqamli texnologiyalar mijozlar bazasini kengaytirishi, bank xizmatlari samaradorligini oshirishi va yangi resurslarni jalb qilish imkonini berishini asoslagan. M. Bod'a va E. Zimkova tomonidan Journal of Policy Modeling jurnalida e'lon qilingan tadqiqotda banklarning kredit-depozit nisbati va moliyaviy barqarorligi tahlil qilingan [3]. Tadqiqotchilar resurs bazasini oshirish bilan bir qatorda uning likvidlik va foydalanish samaradorligini ta'minlash zarurligini ta'kidlagan. L. Chernykh va V. Kotominning Journal of Banking & Finance jurnalida chop etilgan tadqiqotida depozitlarni sug'urtalash tizimi va bank resurslarining shakllanishi o'rganilgan [4]. Natijalarga ko'ra, mijozlar ishonchi va institutsional himoya mexanizmlari depozit bazasining barqaror o'sishida muhim omil hisoblanadi. Y. Tang, Z. Li, J. Chen va C. Dengning Pacific-Basin Finance Journal jurnalidagi tadqiqotida kapital yetariligi, banklararo kredit va likvidlik yaratish jarayonlari tahlil qilingan [5]. Mualliflar bank kapitalining mustahkamligi kreditlash

imkoniyatlarini kengaytiruvchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatgan. K.V. Sumi tomonidan Intelligent Systems with Applications jurnalida chop etilgan tadqiqotda Hindiston xususiy banklarida likvidlik risklarini boshqarish masalasi o'rganilgan [6]. Tadqiqot natijalari resurs bazasining hajmi bilan birga uning xavfsiz va muvozanatli tarkibi ham muhimligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham xususiy banklar resurs bazasi masalasi depozit siyosati, kapitallashtirish va bank islohotlari doirasida o'rganilmoqda. M.M. Abdullayevichning tijorat banklari kapitallashtirishga bag'ishlangan tadqiqotida kapital bazasining mustahkamligi banklarning uzoq muddatli kreditlash imkoniyatlarini oshirishi qayd etilgan [7]. D. Ukdamboev va E. Ibadullaev tomonidan olib borilgan "The Impact of Currency Policy Reforms on Capital Accumulation" tadqiqotida valyuta siyosati islohotlarining kapital shakllanishiga ta'siri tahlil qilingan [8]. Mualliflar makroiqtisodiy barqarorlik bank resurslarini kengaytirishda muhim omil ekanligini asoslagan. Sh.K. Kurbaniyazov tadqiqotlarida bank boshqaruvi va moliyaviy resurslarni samarali boshqarish masalalari o'rganilgan bo'lib, resurs bazasining kengayishi samarali boshqaruv mexanizmlariga bog'liqligi ko'rsatilgan [9]. A.A. Temirov ishlarida esa tijorat banklarida omonatlarni jalb qilish va jamg'armalarni bank tizimiga yo'naltirish masalalari yoritilgan [10].

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xususiy banklarning resurs bazasini kengaytirish faqat depozitlarni ko'paytirish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy sharoitda kapitalni mustahkamlash, raqamli xizmatlarni rivojlantirish, mijozlar ishonchini oshirish va resurslarni diversifikatsiya qilish banklarning barqaror rivojlanishining asosiy shartlari hisoblanadi.

### ***Tadqiqot metodologiyasi.***

Mazkur tadqiqotda xususiy banklarning

resurs bazasini shakllantirish va uni kengaytirish jarayonlarini o'rganishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida rivojlangan mamlakatlar, xususan AQSh va Yevropa Ittifoqi bank tizimlarining resurs shakllantirish amaliyoti o'rganilib, ularning ilg'or tajribalari O'zbekiston bank tizimi bilan taqqoslandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma'lumotlari asosida xususiy banklarning aktivlari, depozitlari, kapitali va kredit ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida xususiy banklar resurs bazasini diversifikatsiya qilish va moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

### ***Tahlil va natijalar muhokamasi.***

Xususiy banklarning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda resurs bazasining yetarlicligi hamda uning tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalanganligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy bank amaliyotida resurs bazasini shakllantirish jarayoni nafaqat an'anaviy depozit mablag'larini jalb qilish bilan cheklanib qolmoqda, balki kapital bozorlari imkoniyatlaridan foydalanish, innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish asosida takomillashib bormoqda. Ayniqsa, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, banklarning barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan resurs manbalarining turli shakllarga ega bo'lishiga bog'liq.

Yevropa mamlakatlari bank tizimida resurs bazasini boshqarish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish strategik yo'nalish sifatida qaraladi. Xususan, Yevropa Ittifoqi hududidagi banklar faoliyatida kapital yetarlicligi, likvidlik ko'rsatkichlari va aktivlar sifatini nazorat qilish mexanizmlari rivojlangan bo'lib, bu holat moliyaviy tizimning tashqi

iqтisodiy xatarlar ta’siriga chidamliligini oshiradi. Yevropa Markaziy banki ma’lumotlariga ko’ra, 2025-yil yakunlari bo’yicha mintaqa banklarining asosiy kapitali yetarliligi (CET1) o’rtacha 16,2 foizni tashkil etgan. Mazkur ko’rsatkich banklarning ichki moliyaviy imkoniyatlari yuqori ekanligi va kutilmagan yo’qotishlarga qarshi yetarli himoya shakllanganligini ifodalaydi.

Shuningdek, Yevropa bank sektorida muammoli kreditlar ulushining past darajada saqlanib qolayotgani resurslardan samarali

foydalanish tizimi yo’lga qo’yilganidan dalolat beradi. Xususan, 2025-yil yakunlari bo’yicha kredit portfelidagi muammoli aktivlar ulushi 2,2 foiz atrofida shakllangan bo’lib, bu banklarning kredit siyosati, risklarni boshqarish tizimi va resurslarni joylashtirish samaradorligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Yevropa banklari resurs bazasini kengaytirishda faqat mijozlar depozitlariga tayanib qolmasdan, fond bozori instrumentlaridan ham faol foydalanmoqda.


**DEPOZITLAR**  
19,085.3 mlrd. dollar

**Depozitlar** — resurs bazasining poydevori. Banklar uchun eng arzon va ommaviy moliyalashtirish manbai.


**Depozitlar tarkibi:**

- Yirik muddatli depozitlar: 2,515.1 mlrd. dollar
- Boshqa (jamg’arma, talab qilib olinguncha) depozitlar: 16,570.2 mlrd. dollar

**KAPITAL VA QARZLAR O’RTASIDAGI MUVOZANAT**



Deyarli teng ulushda bank barqarorligini ta'minlamoqda.




**XUSUSIY KAPITAL (Residual)**  
2,480.4 mlrd. dollar

Aktivlar va majburiyatlar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan bankning o'z mablag'lari. Tizimning barqarorligini ta'minlovchi muhim omil.

**QARZ MABLAG'LARI**  
2,263.6 mlrd. dollar

Banklarning moliya bozorlaridan va boshqa institutlardan jalb qilgan uzoq va qisqa muddatli qarz majburiyatlari.

**BOSHQA MAJBURIYATLAR\***  
1,474.3 mlrd. dollar



Deyarli teng ulushda bank barqarorligini ta'minlamoqda.

**1-rasm. AQSh tijorat banklari resurs bazasi va majburiyatlari tarkibiy tuzilmasi tahlili<sup>1</sup>**

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimi tajribasini o’rganishda AQSh tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish mexanizmlari alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. AQSh bank sektorida resurslarni jalb qilish va ularni samarali boshqarish tizimi bozor tamoyillariga asoslangan bo’lib, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalangan tarkibi banklarning likvidligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning muhim omili sifatida namoyon bo’ladi.

2026-yil aprel holatiga ko’ra, AQSh tijorat banklari umumiy resurslari (aktivlari) 25 303,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Mazkur resurs bazasining asosiy qismini depozit mablag’lari tashkil qilib, ularning jami hajmi 19 085,3 mlrd. dollarga yoki umumiy

aktivlarning 75,4 foiziga teng bo’lgan. Bu ko’rsatkich AQSh bank tizimida depozitlar hanuzgacha bank resurslarining eng muhim va barqaror manbasi ekanligini ko’rsatadi.

Depozitlar tarkibini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, banklar tomonidan jalb qilingan mablag’larning asosiy qismi jamg’arma va talab qilib olinguncha depozitlardan shakllangan. Xususan, ushbu turdagi depozitlar 16 570,2 mlrd. dollarni tashkil etib, banklarning qisqa va o’rta muddatli likvidligini ta’minlashda muhim rol o’ynamoqda. Shu bilan birga, yirik muddatli depozitlar hajmi 2 515,1 mlrd. dollarni tashkil qilgan bo’lib, ular banklarning uzoqroq muddatli kredit operatsiyalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

AQSh tijorat banklari resurs bazasining

<sup>1</sup>AQSh Federal zaxira tizmi (FRS) ma’lumotlari (<https://www.federalreserve.gov/>) asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


yana bir muhim jihati shundaki, banklar faqat depozit mablag'lariga tayanib qolmasdan, moliya bozorlari orqali jalb qilinadigan qarz mablag'laridan ham faol foydalanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, jalb qilingan qarz mablag'lari 2 263,6 mlrd. dollarni tashkil etib, jami aktivlarning 8,9 foiziga teng. Ushbu moliyaviy instrumentlar banklarga resurs manbalarini kengaytirish, kreditlash hajmini oshirish hamda bozor sharoitlariga moslashuvchan moliyaviy siyosat yuritish imkonini beradi.

Banklarning o'z mablag'lari, ya'ni xususiy kapital hajmi 2 480,4 mlrd. dollarni tashkil etib, jami resurslarning 9,8 foizini egallaydi. Mazkur ko'rsatkich bank tizimining kapital barqarorligini ifodalovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Kapitalning yetarli darajada shakllanganligi banklarning kutilmagan moliyaviy yo'qotishlarga chidamliligini oshiradi hamda kreditorlar va mijozlar ishonchini mustahkamlaydi.

Shuningdek, AQSh bank tizimida boshqa

majburiyatlar hajmi 1 474,3 mlrd. dollarni tashkil etib, jami aktivlarning 5,9 foiziga teng bo'lgan. Ushbu majburiyatlar tarkibiga turli moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq instrumentlar, jumladan, savdo majburiyatlari hamda boshqa qarz shakllari kiradi. Mazkur manbalarning mavjudligi banklarga resurslarni boshqarishda qo'shimcha moslashuvchanlik yaratadi.

Umuman olganda, AQSh tijorat banklari tajribasi shuni ko'rsatadiki, barqaror resurs bazasini shakllantirishda depozit mablag'lari asosiy o'rin tutgan bo'lsa-da, zamonaviy bank tizimi uchun muqobil moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish ham zarur hisoblanadi. Xususiy kapital, qarz instrumentlari va boshqa moliyaviy vositalarning o'zaro muvozanatli nisbatda shakllanishi banklarning likvidligini saqlash, risklarni kamaytirish hamda uzoq muddatli kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.



**2-rasm Yevropa mamlakatlari xususiy banklarining aktivlarining taqsimlanishi(01.01.2026-yil ma'lumoti)<sup>2</sup>**

Xususiy banklar resurs bazasini shakllantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganishda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bank tizimi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur hududda bank faoliyati rivojlangan moliya bozori, qat'iy prudensial nazorat mexanizmlari va moliyalashtirish manbalarining keng diversifikatsiyasi asosida shakllangan. Yevropa Ittifoqi (EU-27) tijorat

banklari faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, banklarning resurs bazasi nafaqat depozit mablag'lari, balki kapital bozori instrumentlari va boshqa zamonaviy moliyaviy vositalar hisobidan ham kengayib bormoqda.

2024–2025-yillar holatiga ko'ra, Yevropa Ittifoqi bank tizimining jami aktivlari 45,1 trln yevroga yetgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich mintaqa bank sektorining iqtisodiyotdagi

<sup>2</sup>Yevropa Markaziy Banki (ECB) ma'lumotlari (<https://data.ecb.europa.eu>) asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

yuqori moliyaviy vositachilik rolini ifodalaydi. Bank aktivlarining asosiy qismi Yevrohudud mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelib, ular 40,55 trln yevroni tashkil etadi. Mazkur holat Yevropa bank tizimida umumiy pul-kredit siyosati, yagona nazorat standartlari va integratsiyalashgan moliya bozorlarining ta'siri kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Yevropa banklarining resurs bazasi tarkibida depozit mablag'lari asosiy moliyalashtirish manbasi sifatida namoyon

bo'lmoqda. Tahlillarga ko'ra, 2024-yil yakunida bank aktivlarini moliyalashtirishda depozitlarning ulushi 56,3 foizga yetgan. Ushbu ko'rsatkich 2007-yilda qayd etilgan 50,3 foizlik darajaga nisbatan sezilarli o'sishni ko'rsatadi. Mazkur tendensiya Yevropa banklarida mijoz mablag'lari hisobidan shakllanadigan resurslar ulushi ortib borayotganini va banklarning tashqi moliyalashtirish manbalariga bog'liqligi kamayganini anglatadi.

**Birinchi darajali asosiy kapital yetarliligi**

2025-yilning 4-choragi holatiga ko'ra, bu ko'rsatkich banklarning kutilmagan iqtisodiy zarbalarga qarshi mustahkam himoya qatlamiga ega ekanligini bildiradi.

**Muammoli kreditlarning past ulushi**

Aktivlar sifatining yashilanishi natijasida muammoli kreditlar ulushi so'nggi yillarda minimal darajada saqlanib qolmoqda.

**Kapital rentabelligi**

Yevropa banklarining rentabelligi barqarorlashgan bo'lib, bu sektorning investorlar uchun jozibadorligini ta'minlaydi.

**3-rasm. Yevropa xususiy banklarining barqarorlik va samaradorlik indikatorlari<sup>3</sup>**

Depozit bazasining kengayishi banklar uchun resurslarning nisbatan arzon va barqaror manbasini yaratadi. Xususan, uy xo'jaliklari depozitlari 10,56 trln yevroni tashkil etib, bank majburiyatlari tarkibida muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, nomoliyaviy korporatsiyalar mablag'lari 4,14 trln yevroga teng bo'lib, real sektor subyektlarining bank tizimidagi ishtiroki yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Yevropa bank tizimining muhim jihatlaridan biri resurs manbalarining diversifikatsiyalashganligi hisoblanadi. Banklar an'anaviy depozitlardan tashqari fond bozori instrumentlaridan, xususan, korporativ obligatsiyalar, uzoq muddatli qarz instrumentlari hamda ekologik loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan yashil obligatsiyalardan faol foydalanmoqda. Bunday yondashuv banklarga uzoq muddatli va nisbatan barqaror moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi.

Bank sektorining barqarorligini baholashda kapital yetarliligi va aktivlar sifati

muhim mezonlardan hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi banklarida birinchi darajali asosiy kapital yetarliligi (CET1) 16,2 foiz darajasida shakllangan. Ushbu ko'rsatkich banklarning tashqi iqtisodiy xatarlar va moliyaviy beqarorlik holatlariga nisbatan yetarli himoya zaxirasiga ega ekanligini bildiradi.

Bundan tashqari, muammoli kreditlar (NPL) ulushining 2,2 foiz darajasida saqlanayotganligi bank aktivlari sifatining yuqori ekanligini ko'rsatadi. Kredit portfelining sog'lomligi resurslardan samarali foydalanish, kredit risklarini boshqarish va qarzdorliklarni nazorat qilish tizimlari rivojlanganligini ifodalaydi. Shu bilan birga, Yevropa banklarida kapital rentabelligi (ROE) 9,5 foiz atrofida shakllangan bo'lib, bu banklarning daromadlilik va barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlayotganini ko'rsatadi.

Yevropa bank sektorida kuzatilayotgan yana bir muhim jarayon — bank konsolidatsiyasining kuchayishidir. 2008-yildan keyingi davrda banklar sonining kamayishi va yirik moliyaviy institutlarning

<sup>3</sup>Yevropa Banklar Federatsiyasi (EBF) ma'lumotlari (<https://www.ebf.eu/>) asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

shakllanishi tizim samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, Yevropa Ittifoqi banklari tajribasi shuni ko'rsatadiki, barqaror resurs bazasini shakllantirish faqat depozitlarni ko'paytirish bilan cheklanmaydi. Muhim jihat moliyalashtirish manbalarining o'zaro muvozanatli tarkibini yaratish, kapital bozori imkoniyatlaridan foydalanish va zamonaviy moliyaviy instrumentlarni rivojlantirishdan iboratdir.

Rivojlangan mamlakatlar, xususan AQSh va Yevropa Ittifoqi bank tizimi tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishida resurs bazasining hajmi bilan bir qatorda uning tarkibiy tuzilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur davlatlar tajribasida banklar resurslarni shakllantirishda faqat an'anaviy depozit mablag'lariga bog'lanib qolmasdan, kapital bozori instrumentlari, uzoq muddatli qarz mablag'lari, xalqaro moliyaviy institutlar resurslari hamda innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridan keng foydalanmoqda. Ushbu yondashuvlarni O'zbekiston bank tizimiga moslashtirish xususiy banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kreditlash imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omil bo'lishi mumkin.

O'zbekiston bank sektorida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xususiy banklarning bozordagi ulushi va moliyaviy imkoniyatlari ortib bormoqda. Biroq, xususiy banklar resurs bazasining shakllanishida asosiy manba sifatida hali ham mijozlar depozitlari ustunlik qilmoqda. Bu holat banklar uchun nisbatan arzon va barqaror moliyalashtirish imkonini bersada, uzoq muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirishda resurslarning muddatlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda ham resurs bazasini

diversifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Birinchi navbatda, Yevropa banklari tajribasida keng qo'llanilayotgan kapital bozori instrumentlarini rivojlantirish O'zbekiston xususiy banklari uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususiy banklar tomonidan korporativ obligatsiyalar, subordinatsiyalangan qarz instrumentlari va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish amaliyotining kengayishi depozitlardan tashqari qo'shimcha uzoq muddatli resurslarni jalb qilish imkonini beradi. Buning natijasida banklarning kredit portfeli muddatlari bilan jalb qilingan mablag'lar muddatlari o'rtasidagi farq kamayadi hamda real sektorni uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlari oshadi.

Shuningdek, xalqaro tajribada so'nggi yillarda rivojlanayotgan yashil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish O'zbekiston sharoitida ham muhim ahamiyatga ega. Energetika samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan yashil obligatsiyalarni joriy etish xususiy banklar uchun yangi resurs manbalarini yaratishi mumkin. Mazkur instrumentlar xalqaro investorlar uchun ham jozibador bo'lib, bank sektoriga xorijiy kapital oqimini oshirishga xizmat qiladi.

AQSh bank tizimi tajribasida kuzatilganidek, banklarning resurs bazasida depozitlar asosiy o'rin egallagan holda, qarz instrumentlari va kapital mablag'lari bilan muvozanatlashgan. Ushbu modelni O'zbekiston sharoitida qo'llashda banklarning kapital bazasini mustahkamlash va xususiy investorlar ishtirokini kengaytirish muhim hisoblanadi. Xususan, xususiy banklarning aksiyalarini ochiq bozorda joylashtirish, institutsional investorlarni jalb qilish va bank boshqaruvida xalqaro standartlarni keng qo'llash ularning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishi mumkin.

Bundan tashqari, rivojlangan bank tizimlarida resurs bazasini boshqarish bilan bir

qatorda aktivlar sifatiga ham katta e'tibor qaratiladi. Yevropa mamlakatlarida muammoli kreditlar ulushining past darajada saqlanishi risklarni boshqarish tizimlarining rivojlanganligi bilan izohlanadi. O'zbekiston xususiy banklari uchun ham kreditlash jarayonlarida zamonaviy baholash usullarini keng joriy etish, mijozlarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish va kredit risklarini oldindan aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar rivojlanishi banklarning resurs bazasini kengaytirishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Xorijiy banklar tajribasida mobil bank xizmatlari, masofaviy identifikatsiya va raqamli platformalar orqali mijozlar bazasini kengaytirish natijasida depozitlarni jalb qilish jarayoni sezilarli darajada soddalashtirilgan. O'zbekiston xususiy banklari tomonidan ushbu mexanizmlarni yanada rivojlantirish aholi jam'armalarini bank tizimiga jalb qilish ko'lamini oshirishi mumkin.

Umuman olganda, AQSh va Yevropa Ittifoqi banklari tajribasini O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish jarayonida asosiy e'tibor resurs bazasining sifat jihatdan takomillashuviga qaratilishi lozim. Bunda depozit mablag'larini ko'paytirish bilan bir qatorda, kapital bozori imkoniyatlaridan foydalanish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish va banklarning kapital yetarliligini mustahkamlash ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur choralar amalga oshirilishi natijasida xususiy banklarning moliyaviy mustaqilligi oshadi, resurslarning o'rtacha qiymati kamayadi hamda iqtisodiyotning real sektorini uzoq muddatli va barqaror kredit mablag'lari bilan ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

Mazkur tajriba O'zbekiston xususiy banklari uchun ham muhim amaliy ahamiyat

kasb etadi. Xususan, mahalliy banklarda depozit bazasini mustahkamlash bilan bir qatorda obligatsiyalar bozori, yashil moliyalashtirish vositalari va xalqaro moliya institutlari resurslarini jalb qilish mexanizmlarini rivojlantirish banklarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur xorijiy tajriba O'zbekiston xususiy banklari uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, resurs bazasini faqat depozitlar hisobiga emas, balki kapital bozori instrumentlari, xalqaro moliyaviy institutlar mablag'lari va innovatsion moliyalashtirish vositalari orqali kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, korporativ obligatsiyalar, subordinatsiyalangan qarz instrumentlari va ekologik loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan yashil obligatsiyalar chiqarish amaliyoti keng tarqalgan. Ushbu mexanizmlar banklarga uzoq muddatli va nisbatan barqaror moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini beradi. Natijada banklarning kapital rentabelligini maqbul darajada ushlab turish, moliyalashtirish qiymatini kamaytirish va inflyatsion jarayonlarning salbiy ta'sirini yumshatish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida ham so'nggi yillarda xususiy banklarning resurs bazasini shakllantirish borasida muhim tarkibiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bank sektorida raqobat muhitining kuchayishi, xususiy kapital ishtirokidagi banklar sonining ortishi hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarining raqamlashtirilishi natijasida ushbu banklarning moliyaviy imkoniyatlari kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 36 ta tijorat bankining 27 tasi davlat ulushi mavjud bo'lmagan banklardan tashkil topgan. Ushbu davrda bank tizimining jami aktivlari 924,7 trln so'mga yetgan bo'lsa, xususiy banklar hissasiga

337,8 trln so‘m yoki jami aktivlarning 36,5 foizi to‘g‘ri kelgan. Mazkur ko‘rsatkich xususiy banklarning moliya bozorida mavqei tobora mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Xususiy banklarning resurs bazasida eng muhim manba hisoblangan depozit mablag‘larini jalb qilish borasidagi faolligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bank tizimidagi jami depozitlar

hajmi 417,2 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lib, shundan 204,5 trln so‘mi xususiy banklar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy depozit bazasining qariyb 49 foizini tashkil etadi. Mazkur holat xususiy banklarning aholi va biznes subyektlari orasidagi ishonchi ortib borayotganini hamda bozor talablariga mos xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari kengayayotganini anglatadi.


1-jadval

**O‘zbekiston tijorat banklarining asosiy ko‘rsatkichlari (2026-yil 1-yanvar holatiga) [1]**

Ko‘rsatkichlar (mlrd so‘m)	Jami bank tizimi	Davlat ulushi mavjud banklar	Boshqa (xususiy) banklar	Xususiy banklarning jami tizimdagi ulushi (%)
Jami aktivlar hajmi	924 763,1	586 936,6	337 826,5	36,53 %
Ajratilgan jami kreditlar	604 002,2	404 468,8	199 533,4	33,04 %
Jalb qilingan depozitlar	417 258,2	212 670,6	204 587,6	49,03 %
Banklarning jami kapitali	135 339,1	81 425,9	53 913,1	39,83 %

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, banklar uchun depozit mablag‘lari kreditlashning asosiy manbasi bo‘lib, rivojlangan mamlakatlarda depozitlarning kreditlarga nisbati odatda 70–90 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda ushbu ko‘rsatkich 2020-yildagi 41,4 foizdan 2024-yilda 57,9 foizga yetdi. Bu, bir tomondan, bank tizimiga bo‘lgan ishonchning ortayotganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, depozitlar hajmi iqtisodiyotni moliyalashtirish ehtiyojlarini to‘liq qoplash uchun hali yetarli emasligini anglatadi. Bunga aholining moliyaviy

savodxonligi darajasining pastligi, depozit shartlarining yetarlicha raqobatbardosh emasligi hamda inflyatsiya va milliy valyuta barqarorligiga nisbatan ishonchning cheklanganligi sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, xususiy banklar resurs bazasida depozitlarning yuqori ulushi uzoq muddatli investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu sababli, xorijiy tajriba asosida resurs manbalarini diversifikatsiya qilish va kapital bozorlaridan foydalanish mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



**4-rasm. ATB “Kapitalbank” resurslaridan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari<sup>4</sup>**

<sup>4</sup>ATB “Kapitalbank” yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

4-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2021-2025-yillarda ATB "Kapitalbank"da resurs bazasi barqarorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, depozitlar hajmi 2021-yildagi 5 953,5 mlrd so'mdan 2025-yilda 37 285,1 mlrd so'mga yetgan. 2025-yilda 2024-yilga nisbatan depozitlar 11,23 foizga oshib, taklif etilgan yillik 10-12 foizlik o'sish mezoniga mos kelgan.

Bankning xususiy kapitali 2021-yilda 743,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 5 736,3 mlrd so'mga yetgan. 2025-yilda xususiy kapitalning 38,60 foizga oshgani belgilangan 8-10 foizlik minimal mezondan ancha yuqori natija hisoblanadi. Bu bankning risklarni qoplash salohiyati va moliyaviy barqarorligi mustahkamlanganini ko'rsatadi. Jami aktivlar hajmi 2021-yildagi 7210,4 mlrd so'mdan 2025-yilda 47 069,9 mlrd so'mga, majburiyatlar esa 6 467,0 mlrd so'mdan 41 333,6 mlrd so'mga yetgan. 2025-yilda aktivlar 13,39 foizga, majburiyatlar 10,60 foizga oshgan. Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, xususiy banklar tomonidan korporativ obligatsiyalar, yashil moliyalashtirish instrumentlari va boshqa zamonaviy moliyaviy vositalarni joriy etish resurs bazasining uzoq muddatli va barqaror shakllanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston bank tizimida shakllangan nisbatan yuqori rentabellik ko'rsatkichlari xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlari uchun ijobiy investitsion muhit yaratishi mumkin.

Umuman olganda, xususiy banklar resurs bazasini kengaytirishning asosiy yo'nalishi sifatida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, kapital bozorlaridan samarali foydalanish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish zarur. Mazkur yondashuv banklarning moliyaviy barqarorligi va resurs bazasi diversifikatsiyasini kuchaytirish bilan birga, iqtisodiyotning real sektorini uzoq muddatli, arzon va barqaror moliyaviy resurslar bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada investitsion faollik oshadi, yirik

infratuzilma va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha manbalar shakllanadi hamda iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kapital bozorlaridan samarali foydalanish banklarning tashqi moliyalashtirish manbalariga qaramligini kamaytirib, ularning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini yanada mustahkamlaydi.

### ***Xulosa va takliflar.***

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xususiy banklarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda resurs bazasining yetarli hajmda shakllanishi hamda uning samarali boshqarilishi muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Bank faoliyatining asosiy moliyaviy poydevori bo'lgan resurs bazasi nafaqat kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi, balki banklarning likvidligi, moliyaviy barqarorligi va bozor sharoitlariga moslashuvchanligini ham belgilaydi.

Tadqiqot davomida AQSh va Yevropa Ittifoqi bank tizimlari tajribasi tahlil qilinib, rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari resurs bazasini shakllantirishda diversifikatsiyalashgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Xususan, ushbu mamlakatlarda depozit mablag'lari asosiy moliyalashtirish manbasi bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, kapital bozori instrumentlari, obligatsiyalar, yashil moliyalashtirish vositalari va xalqaro moliya institutlari mablag'laridan foydalanish amaliyoti bank resurslarini uzoq muddatli va barqaror shakllantirish imkonini bermoqda. Bunday yondashuv banklarning tashqi moliyaviy xatarlarga chidamliligini oshirib, kreditlash faoliyatining uzluksizligini ta'minlamoqda.

O'zbekiston bank tizimi tahlili shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda xususiy banklarning resurs shakllantirish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Xususan, 2026-yil 1-yanvar holatiga xususiy banklar jami

bank aktivlarining 36,53 foizini, jalb qilingan depozitlarning esa 49,03 foizini egallashi ularning bank sektoridagi o'rnini tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xususiyy banklar kapitalining tizimdagi ulushi 39,83 foizni tashkil etishi ularning moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari kuchayayotganidan dalolat beradi.

Biroq mavjud ijobiy tendensiyalarga qaramay, O'zbekiston xususiyy banklari resurs bazasi tarkibida depozit mablag'lariga yuqori darajada bog'liqlik saqlanib qolmoqda. Bu holat banklarning uzoq muddatli kreditlash imkoniyatlarini cheklashi va aktivlar hamda passivlar muddatlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli resurs bazasini kengaytirishda muqobil moliyalashtirish manbalaridan foydalanish zarurati mavjud.

Xorijiy tajribadan kelib chiqib, O'zbekiston xususiyy banklari uchun kapital bozori instrumentlarini rivojlantirish, korporativ obligatsiyalar va subordinatsiyalangan qarz vositalarini keng qo'llash, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, yashil moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali banklarning uzoq muddatli resurs

bazasini shakllantirish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshirish mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, xususiyy banklar resurs bazasini rivojlantirishda asosiy e'tibor faqat mablag'lar hajmini oshirishga emas, balki ularning tarkibini sifat jihatdan takomillashtirishga qaratilishi lozim. Bunda depozit siyosatini takomillashtirish, aholi va korxonalarining jamg'armalarini bank tizimiga keng jalb qilish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish hamda mijozlar ishonchini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, xususiyy banklarning resurs bazasini diversifikatsiya qilish mamlakat moliya tizimining barqarorligini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Xorijiy ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali banklarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, kredit resurslari tannarxini kamaytirish va iqtisodiyotning real sektorini uzoq muddatli moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash imkoniyatlari oshadi. Shu bois kelgusida xususiyy banklar faoliyatida innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish va resurs manbalarini kengaytirish bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistika byulleteni. Toshkent. 2025-yil <https://cbu.uz/uz/statistics/buletin/3385359/>
2. Wang Y., Xiuping S., Zhang Q. Can fintech improve the efficiency of commercial banks? – An analysis based on big data // *Research in International Business and Finance*. – 2021. – Vol. 55. – Article 101338.
3. Bod'a M., Zimkova E. Overcoming the loan-to-deposit ratio by a financial intermediation measure – A perspective instrument of financial stability policy // *Journal of Policy Modeling*. – 2021. – Vol. 43, Issue 5. – P. 1025-1042.
4. Chernykh L., Kotomin V. Risk-based deposit insurance, deposit rates and bank failures: Evidence from Russia // *Journal of Banking & Finance*. – 2022. – Vol. 134. – Article 106344.
5. Tang Y., Li Z., Chen J., Deng C. Liquidity creation cyclicalities, capital regulation and interbank credit: Evidence from Chinese commercial banks // *Pacific-Basin Finance Journal*. – 2021. – Vol. 67. – Article 101536.
6. Sumi K.V. Neural network-based liquidity risk prediction in Indian private banks //

*Intelligent Systems with Applications. – 2024. – Vol. 21. – Article 200310.*

7. Abdullayevich M.M. Capitalization Level of Commercial Banks: Theory and Practice // *International Journal of Business Management, Economics, and Banking. – 2025. – Vol. 1. – P. 1-10.*

8. Ukdamboev D., Ibadullaev E. The Impact of Currency Policy Reforms on Capital Accumulation // *Finance, Money and Credit. – 2025. – № 3. – P. 45-52.*

9. Kurbaniyazov Sh.K. Corporate Management: Theoretical Foundations and Organizational Economic Aspects // *Science and Innovation. – 2025. – Vol. 4. – P. 120-126.*

10. Temirov A.A. Global Priorities of Socio-Economic Development in the Context of Digitalization: Yesterday, Today, Tomorrow // *Scientific Electronic Library. – 2026. – P. 1-12.*